

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va yo'nalishlari227

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq o'yinlari orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning metodologik asoslari231

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov

Kichik biznes subyektlarida iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish strategiyasini takomillashtirish235

U.X.Gulmatov

O'zbekiston milliy transport tizimining iqtisodiy asoslari.....239

FALSAFA

M.M.Abduraxmonova, D.O.Akramov

Umumta'lim maktablarida xavf guruhidagi oila farzandlarini ijtimoiylashuvida mahalla ijtimoiy xodimining ahamiyati.....246

Q.Sulaymonov

O'rta asr Islom Sharqi allomalarining gnoseologik va teologik qarashlarining qiyosiy induksiyasi253

X.A.Yulbarsova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....258

I.A.Asatulloev

Alfred Adlarning qalb konsepsiyasida inson kamolotining ijtimoiy omillar bilan shartlanganligi.....264

I.A.Suvanov

Axborot jamiyatida insonni kutayotgan yangi muammolar xususida ayrim mulohazalar268

M.Y.Ergashov, Z.I.Narziyev

Qomusiy alloma Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziyning ma'naviy va ilmiy merosi.....273

M.K.Soipova

Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda fan va islom qadriyatlarini tushunchasining mazmun mohiyati.....277

I.B.Toshpo'latov

Jamiyat taraqqiyotida filantropik harakatning ahamiyati.....281

З.С.Касимова

Цифровизация и гуманитарное образование: сотрудничество и инновации284

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev

O'zbekiston Respublikasining Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishda xalqaro maydondagi tashabbuslari.....290

O'.N.Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ma'naviyatini yuksaltirish zarurati.....296

M.T.Musayev

Globallashuv sharoitida missionerlikning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ta'siri.....300

G.S.Ro'ziyeva

Madaniyat va milliy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini belgilashning o'ziga xosligi305

TARIX

B.X.Matboboyev, A.A.Aloxunov

O'zbek-Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining Mingtepa shahar xarobasida olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari xususida311

J.Sultonov

Chingizxonning markazlashgan davlatga asos solishida ittifoqchilik va diplomatiyaning roli....318

X.X.Azimov

Qadimgi Xitoy manbalarida Usun davlati.....329

J.Z.Axmedov



UO'K: 331.7:378 (575.1)

**DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA RAHBAR KADRLAR MA'NAVİYATINI
YUKSALTIRISH ZARURATI****НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ МОРАЛЬНОГО ДУХА РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ
В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВОМ И ОБЩЕСТВОМ****THE NEED TO IMPROVE THE MORALITY OF SENIOR PERSONNEL IN THE
MANAGEMENT OF THE STATE AND SOCIETY****Ahmedova O'g'ilxon Nomozovna** Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi v.b.dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlar ijodkorligi har tomonlama taraqqiyoti uchun xizmat qilishi ochib berilgan. Hozirgi davrda yetuk rahbar va uning ma'naviy xususiyatlarining zamonaviylashuvi va integrallashuviga mos bo'lishi zarurati tadqiq etilgan. Buning uchun kishilardagi axloqiy sifatlar qanchalik go'zal yoki hunuk bo'lmasin, ular faqatgina ijtimoiy-siyosiy boshqaruv faoliyatida namoyon bo'lishi aniqlangan.

Аннотация

В данной статье выявлено, что творчество руководящих кадров служит всестороннему развитию управления современным государством и обществом. В современный период исследуется потребность в зрелом лидере и его духовных характеристиках, совместимых с модернизацией и интеграцией. По этому, как бы прекрасны или безобразны ни были нравственные качества людей, они раскрываются лишь в деятельности общественного и политического управления.

Abstract

In this article, it is revealed that the creativity of leading personnel serves for the all-round development of the modern state and society management. In the current period, the need for a mature leader and his spiritual characteristics to be compatible with modernization and integration has been researched. For this, no matter how beautiful or ugly the moral qualities of people are, they are revealed only in the activities of social and political management.

Kalit so'zlar: Davlat, jamiyat, boshqaruv, davlat siyosati, islohotlar, ma'naviy tarbiya, elektron hukumat, ma'suliyat, rahbar kadrlar.

Ключевые слова: Государство, общество, управление, государственная политика, реформы, духовное образование, электронное правительство, ответственность, лидерство.

Key words: State, society, management, state policy, reforms, spiritual education, electronic government, responsibility, leadership.

KIRISH

Davlat va jamiyatning bugungi kundagi boshqaruvi, mamlakatimizda boshqaruv tizimining yangi bosqichini boshladi. Zero "...zamonaviy, oqilona boshqaruv tizimini joriy etish – oldimizga qo'ygan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir"[1.]. Bu borada, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy islohotlar Kontseptsiyasi"[2.]ning qabul qilinishi va unda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha muhim vazifalardan biri – davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvi jarayonlarini demokratlashtirishda har bir boshqaruvchi o'z bo'g'inining yetuk rahbari sifatida ma'naviy jarayonlarga o'z hissasini qo'shishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buyuk alloma Husayn Voiz Koshifiy "Davlat va jamiyatni siyosatsiz, uni boshqaruvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki bularsiz dunyoning muhim ishlarini tartibga solish vazifasini amalga oshirish mumkin emas, tarbiya va jazo haqidagi qonunlarning bo'lmaganligi davlat faoliyatining buzilishiga olib keladi" [3.3.],- deb ta'kidlaydi. Bu esa davlat va jamiyat boshqaruvida ma'naviy tarbiyaning muhim ekanligini anglatadi. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo'ladigan tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni bizning eng katta boyligimiz –

SIYOSAT

xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyatidir"[4.31.]. Bizningcha, davlat boshqaruvining asosi hisoblangan rahbar kadrlar va ularning ma'naviy salohiyati jamiyatning aynan bugungi va kelajak taqdirini belgilab beradi. Siyosatga oid tadqiqotlar olib borayotgan olimlar ta'kidlaganidek, "...davlat boshqaruvini isloh qilish jarayonida boshqaruv samaradorligi: davlat xizmatlarining maksimal darajadagi kafolati; davlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zaro mas'uliyati; davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, islohotlarning samaradorligi davlat funktsiyalarini amalga oshirish uchun yangi siyosiy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishga bog'liq. Jumladan, "elektron demokratiya", "elektron hukumat", "outsorsing" va "kontraktning aut" usullarini joriy etish, samarali boshqaruv tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi resurs sifatida davlatning muhim vazifalarini bajarishga qodir bo'lgan fuqarolik jamiyatining turli tuzilmalarini boshqarishga amaliy yordam beradi" [5.17.]. Bundan ma'lumki davlat boshqaruvida samaradorlik muhim ahamiyatga ega ekan, demak rahbar kadrlarning faoliyatini olib borishida ularning nafaqat siyosiy bilimi, balki ularning ma'naviy va ma'rifiy darajasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Boshqaruvga ta'sir qiladigan ijobiy xislatlar ichida eng muhimi rag'bar kadrlarning ma'naviy salohiyati va ularning tarbiyasidir.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida birinchi marta davlat boshqaruvini isloh qilish davlat xizmati institutini rivojlantirish bilan bog'liq holda olib borilishi belgilab qo'yildi. Aynan davlat iclohotlapni amalga oshiradi va moliyalashtiradi. "Harakatlar strategiyasining bosh maqsadi demokratik jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlovchi ichki mexanizmlarni tezroq barpo etishdir. Davlat boshqaruvini takomillashtirib, uni jadal o'zgarib borayotgan hayot talablariga muvofiqashtirib borish har bir mamlakat oldida turgan muhim vazifa bo'lsa kerak" [6.191.]. Bizningcha, har bir jamiyatda boshqaruv sohasidagi modernizatsiya jarayonlari nafaqat siyosiy balki ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarning o'zgarishlariga ham bog'liqdir.

Davlat boshqaruvida davlat xizmatini uzluksiz takomillashtirishdan turib islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas. Zamonaviy boshqaruvda Hukumat va uning tarkibiga kiruvchi vazirlik hamda idoralar faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish, ish samaradorligini oshirish, rahbar kadrlarning shaxsiy javobgarligi va mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan hokimiyatni to'g'ri tashkil qilishga, boshqaruvda eng samarali vositalardan foydalanishga bog'liq bo'lgan jarayondir.

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri rahbarni mas'uliyatli anglashni o'rgatadi. Bizningcha, ma'naviy tarbiya ko'rgan rahbar ma'suliyatli, axloq nuqtai nazardan maqsadga erishish uchun ma'naviy kuchdan foydalanish barcha odamlar uchun maqsadlar va muayyan maqsadlarni yaratish va amalga oshirish darajasidir. Rahbarning ma'naviy kuchi – maqsadga erishishda qaror qabul qilish jarayonining insonparvarligi va ijtimoiylashuvda namoyon bo'ladi. Davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri salbiy yoki ijobiy bo'lishi mumkin. Rahbarlikni amalga oshirish uchun kuch va qadriyatlarga asoslanish muhim hisoblanadi. Agar faqat kuch ishlatilsa faoliyat salbiy hisoblanishi mumkin. Aksincha, kuch va qadriyatlarni axloq talablariga muvofiq ishlatilsa boshqaruv o'z maqsadiga va qarorlar ijrosining ijobiy jihatlariga erishish mumkin bo'ladi. Mas'uliyat - mas'uliyatli rahbarlikning birinchi qarashlari va qadriyatidir. Bizningcha, boshqaruv va mas'uliyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq qarashlardir. Kuch - bu qaror qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati. Har bir inson, shu jumladan chaqaloqlar, o'z ustidan hokimiyatdan tortib, millionlab odamlarni boshqaradigan hokimiyatgacha ma'lum bir kuchga ega.

Bizning fikrimizcha, shaxs qanchalik ko'p ma'naviy kuchga ega bo'lsa, mas'uliyatni ham shunchalik ko'p xis qiladi. Boshqaruvda kuchga ega bo'lmasa, hech narsa uchun javobgar bo'la olmaydi, lekin kim hokimiyatdan mas'uliyatsizlik bilan foydalansa, uni suiste'mol qiladi. Yetakchilikning, o'z ortidan ergashtirishning eng to'g'ri yo'li – bu shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishdir[7.177.]. Bizningcha, shaxsiy namuna mas'uliyatdir. Lokal va global tashabbuskorlik mas'uliyatli yetakchilikni asosiy belgisidir. Shu o'rinda davlat va jamiyat boshqaruviga ma'naviy tarbiyaning ta'siri "...axloqiy, qadriyatlarga asoslangan global tajribaning ijtimoiylashuviga erishish uchun yetakchilik ma'suliyati taraqqiyotga barqaror ta'sir etadi"[8.5.]. Ma'suliyat rahbarlardan jamoani katta yukini ko'tarishini talab etadi. "O'zgarishi mumkin bo'lgan yetakchilar kuchli qadriyatlarga ega shaxslar hisoblanadi. Ular o'z qadriyatlarini hurmat qiladi, axloqiy ideallari

odamlarni boshqarish bilan o'z qadriyatlari va ehtiyojlarini saqlab qoladi. Umuman olganda, mas'uliyat hokimiyatga javobgarlik [9.121.]dir.

Faylasuf olimi "Rahbar shaxsining ma'naviy fazilatlarini deganda, uning tilida aytilib, dilida, va barcha xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan barcha ijobiy tomonlari tushuniladi. Rahbar shaxs ma'naviy fazilatlarini unda mavjud bo'ladigan iste'dod, izlanish, zamonaviy bilimlilik, vatanparvarlik, imon, diyonat, adolat, mehr-shafqat, e'tiqod, poklik, halollik, vafodorlik kabilarni o'z ichiga oladi"[10.14.], deb ta'kidlaydi. Bu esa ma'naviyat o'zgarish uchun energiya sifatida olinadigan tushuncha sifatida eng qiyini yetakchilik ma'naviyatidir. Chunki, yetakchilik har doim hokimiyat uchun kurashni o'z ichiga oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'naviy yetakchilik alohida emas, balki integratsiyalashgan yetakchilikning ratsional, aqliy va jismoniy jihatlarini namoyon qiladi. Ma'naviy yetakchilik degani rahbarning eng chuqur ichki ishonchidir. Bu yetakchilik ta'limda, siyosatda, biznesda ham mavjud bo'ladi. Yetakchilik o'z vaqtida ma'naviy ma'suliyatni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan 1-ustuvor vazifa, ya'ni "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" deb nomlanadi. Uning 4-maqsadi: Davlat boshqaruv organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish; 5-maqsadi: Ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish maqsad qilib qo'yildi. Demak boshqaruv sohasidagi o'zgarishlarning tub mazmun-mohiyati rahbar kadrlarni intellektual salohiyatini oshirish, professionalizmi kuchaytirish va bizning nazarimizda ularning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Chunki professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini namoyish qiladiganlar kadrlar hisoblanadi.

Rahbarlikka erishish uchun ma'lum tug'ma qobiliyatlar, xohish, yoshlikdan bunga intilish, yaxshigina kasbiy tayyorgarlik, odamlar, guruh keyinchalik hamkasblar orasida o'z fikrini ilgari sura olishga o'rganish, turli xil g'oyalarga ijodkor bo'lish, o'z g'oyalarini hayotga joriy qilishda shaxsiy uslub, usullarini ma'lum miqdorda tezlik bilan o'zgartira olish, albatta, yon-atrofdagilarning (shu jumladan ota-onaning) yordami kerak bo'ladi. Ma'lumki, ushbu tayyorgarliklar orasida odamlar bilan ishlash va ayniqsa tavakkal qila olish va bu tavakkalning natijalaridan qochmaslik katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Rahbar ma'naviyatining asosida shaxs bir kunlik manfaatini boshqalar manfaatidan va o'zining o'zoq, kattaroq manfaatidan ustun qo'ymasa, shaxs rahbar sifatida nafaqat o'z manfaatiga, qolaversa, atrofdagilarning manfaatiga ham katta salbiy zarar yetkazadi. Xorijlik olimlarning ko'zatishlariga qaraganda, yuqori tabaqadagi rahbar besh-etti yilda yetishib chiqar va asosan 35 yoshlarda shakllanib bo'lar ekan. Bu esa o'z o'rnida shaxsning qay darajada tajriba orttirish tezligiga bevosita bog'liqdir. Ya'ni hayotiy tajribasi rahbar ma'naviyatining ajralmas bir qismi hisoblanar ekan.

XULOSA

Davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar ma'naviyatining zaruratini quyidagi muhim jihatlarini ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, Vatanga, boshqa mamlakat va xalqlarga munosabat: ona yurtga muhabbat va sadoqat; milliy va irqiy adovatga toqat qilmaslik; barcha mamlakatlar va xalqlarga yaxshi niyat; millatlararo munosabatlar madaniyati;

Ikkinchidan, mehnatga munosabat: umumiy va shaxsiy manfaat uchun vijdonan mehnat qilish; mehnat intizomiga rioya qilish;

Uchinchidan, jamoat mulki va moddiy boyliklarga munosabat: jamoat mulkini saqlash va ko'paytirish haqida g'amxo'rlik, tejamkorlik, tabiatni muhofaza qilish;

To'rtinchidan, odamlarga munosabat: kollektivizm, demokratiya, o'zaro yordam, insonparvarlik, o'zaro hurmat, oila va bolalarni tarbiyalash;

Beshinchidan, o'ziga bo'lgan munosabat: ijtimoiy burchning yuksak ongi; o'z-o'zini hurmat qilish, halollik;

Oltinchidan, davlat siyosatiga munosabati: jahon taraqqiyotining borishi va istiqbollarni tushunish; mamlakat ichidagi va xalqaro maydondagi voqealarni to'g'ri baholash; axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni tushunish; adolat, demokratiya va xalqlar erkinligi uchun intilish zarurligi

SIYOSAT

bilan ifodalanadi. Bu esa shaxsning, rahbarning ma'naviy sog'lomligi ularni qabul qilish yoki qilmasligida emas, ularga qay darajada munosabat bildirishida namoyon bo'ladi. Ayni shu o'rinda g'urur, iroda, bag'rikenglik, bilimdonlik, dunyo taraqqiyotidan xabardorlik va boshqa shunga o'xshash qobiliyat va bilimlar juda zarur bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент.: 28.12.2018й.//Манба: <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сон Фармони. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 9 сентябрь, 180 (6874)-сони.
3. Муҳиддинова Ф. Адолатнома // “Ҳуқуқ ва бурч” ижтимоий ҳуқуқий журнали № 12. -Тошкент.: 2008.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёти стратегияси. Учинчи нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston”нашриёти. 2022.
5. Мирзаахмедов К. М. Ўзбекистонда давлат бошқаруви жараёнларини демократлаштириш эволюцияси. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2021.
6. Омонов Б.А. Жамиятни модернизациялашнинг концептуал асослари. Тошкент. “Aloqachi”, 2019.
7. Мирзиёев. Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. “Ўзбекистон” НМИУ. Тошкент. 2020.
8. Globally Responsible Leadership Initiative, Globally Responsible Leadership. A Call for Engagement, European Foundation for Management Development, 2005. <http://www.gfli.org/index.php/resources/publications> (Accessed 1 Nov. 2014).
9. More on this fundamental value: Jonas, Hans (1979): Das Prinzip Verantwortung, München: Piper 1979; Stückelberger, Christoph/ Mathwig, Frank (2007): Grundwerte. Eine theologisch-ethische Perspektive, Zürich: TVZ, 121-143 (3.3, on responsibility).
10. Муҳаммаджонова. Л. А. Давлат хизматчиси этикаси ва имижини ўқув қўлланма.–“Университет”, 2017.
11. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази. Тошкент. 2022.